ZAMONAVIY HUQUQSHUNOSLIKDA SHAXSNI IFODALOVCHI YURIDIK TERMINLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Jahongir Xo‘janiyozov Xudaybergan o‘g‘li –
Ma’mun universiteti o‘zbek va sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
+998995006097 xojaniyozovjahongir@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2888-0011

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuridik tilshunoslikda qo‘llaniladigan shaxs tushunchasini anglatuvchi yuridik terminlar haqida so’z yuritiladi. Shaxs tushuncha-sini anglatuvchi yuridik terminlarni mavzuviy guruhlanishi haqida keltirib o’tiladi. Shaxs tushunchasini anglatuvchi yuridik terminlar misollar orqali atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yuridik termin, shaxs, advokat, jinoyatchi, yuridik faoliyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются юридические термины, используемые в юридической лингвистике, обозначающие понятие человека. Упоминается тематическая группировка юридических терминов, обозначающих понятие личности. Юридические термины, обозначающие понятие личности, подробно анализируются на примерах.


Ключевые слова: Юридический термин, лицо, адвокат, преступник, законная деятельность.

Annotation: This article deals with the legal terms used in legal linguistics, meaning the concept of a person. The thematic grouping of legal terms denoting the concept of person is mentioned. Legal terms that mean the concept of person are thoroughly analyzed through examples.

Key words: Legal term, person, lawyer, criminal, legal activity.

Yuridik terminlarni mavzuviy guruhlashda bir qancha jihatlarni inobatga olinadi. Bu terminlarni shaxs, faoliyat, yuridik xujjat, lavozim va jazo joylari tushunchalarini anglatuvchi terminlarga ajratish mumkin. Ularning hammasi

ma’lum faoiliyat nuqtayi nazaridan bir-biri bilan chambarchas bog’liq. Shaxs tushunchalarini anglatuvchi yuridik terminlarni shaxslarning jinoyat sodir etgan yoki etmaganligi, undan tashqari mazkur jinoyatni huquqiy jihatdan ochib beruvchi shaxslar faoliyatiga qarab bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. G’ulomova. G o’z disertatsiyasida shaxs tushunchasini anglatuvchi yuridik terminlarni ikki guruhga ajratadi. Bular: 1) Yurisprudensiya sohasida ish yurituvchi shaxslarni ifodalovchi terminlar 2) Jazolanuvchi, qonunga xilof ish qiluvchi shaxslarni anglatuvchi terminlar.[1] Biz ushbu maqolamizda shaxs tushunchasini anglatuvchi yuridik terminlarni uch guruhga bo’ldik. Quyida ularni jadval asosida ko’rib chiqamiz.



Shaxslarni ifodalovchi terminlar

1. Yuridik faoliyat olib boruvchi shaxslarni ifodalovchi terminlar**:** *advokat, prokuror, sudya, sudya yordamchisi, sud majlisi raisi, ekspert, tergovchi, sud majlisi kotibi, xalq maslahatchisi, tarjimon* va b.

2. Jinoyat sodir etgan shaxs tushunchasini ifodalovchi terminlar: *ayblanuvchi, aybdor, sudlanuvchi, jinoyatchi, javobgar, residivist, brakoner, ta’magir, firibgar, ekstremist* va b.

[1] G’ulomova.G O’zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti. T.: 2005. 18-bet

3. Yuridik jarayonda sud hukmi chiqguniga qadar tergovda ishtirok etuvchi shaxslarni ifodalovchi terminlar: *jabrlanuvchi (hayotdan ko‘z yumgan bo‘lsa, marhum), gumon qilinuvchi, da’vogar, fuqaroviy da’vogar, da’vogar vakili, guvoh, xolis, jamoat himoyachisi, jamoat ayblovchisi, profilaktika noziri* va b.

Yuridik faoliyat olib boruvchi shaxslar - maxsus yuridik bilimga ega bo’lgan, davlat tomonidan muayyan vazifa yuklatilgan, litsenziyasi mavjud bo’lib, yuridik faoliyat olib borishga vakolatli shaxslar tushuniladi. Har qanday huquqiy jarayonda tergov bosqichi ishning natijasini aniqlashda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Aynan shu bosqichda dalillar to’planadi, guvohlar so’roq qilinadi va faktlar aniqlanadi. Sud tomonidan adolatli hukm chiqarilishini ta’minlashda turli rol o’ynaydigan, tomonlar sifatida tanilgan turli shaxslarning ishtirok etishi tergov jarayonining asosiy jihatlaridan biridir. Bu shaxslarga huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, prokurorlar, advokatlar va sudyalar kiradi. Tergov jarayonida birinchi ishtirokchi huquq-tartibot idoralari xodimlaridir. Ular dalillarni to’plash va guvohlar bilan suhbatlar o’tkazish uchun javobgardir. Bu dalil qurollari, DNK va barmoq izlari kabi ashyoviy dalillar hamda guvohlarning ko’rsatmalarini o’z ichiga oladi. Huquq-tartibot idoralari xodimlari gumonlanuvchilarni hibsga olish va ayblovlar uchun sudga olib kelish huquqiga ega. Shuningdek, ular ish uchun tegishli bo’lgan mol-mulkni qidirish va olib qo’yish huquqiga ega. To’plangan dalillarning sudda qabul qilinishi va ayblanuvchining huquqlari himoya qilinishida ularning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular quyidagilar:

Advokat – [*lot*. Advocatus. < advocare – yordamga chaqirish] **1** Sudda javobgarga huquqiy yordam (maslahat) beruvchi, javobgar (aybdor)ni himoya qiluvchi yurist; oqlovchi, himoyachi. (O’TIL, 2-t., 39-b.). *Advokat, taraf sifatida, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqqa ega bo’ladi*. Gazetadan.

Prokuror [*fr*. procureur < *lot*. procurare – g'amxo'rlik qilmoq]

Qonunlarga to'la amal qilinishi va ularning to'g'ri qo'llanishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi mansabdor shaxs. (O'TIL, 2-t., 313-b.). *Respublika prokuror – Qonunlar ijrosi ustidan nazorat prokuror vazifasi emasmi?* Gazetadan.

Sudya [*qad.* R. Sud. – ish; hukm] Muayyan fuqaroviy (ayrim shaxslar yoki muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi, shaxslar bilan muassasa va tashkilotlar o'rtasidagi) nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi – odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi. (O'TIL, 2-t., 580-b.). *Xalq sudi. Sud qarori. Sud hukmi. Sud organlari. Sudga bermoq. Sud tizimi – [Qosimjon:] O'rtoqlar, olib boringlar bularni, adolat sudiga topshiringlar! Tegishli jazosini ko'rsin.* Hamza, Tuhmatchilar jazosi.

Jinoyat sodir etgan shaxs tushunchasini ifodalovchi terminlar

Jinoyat sodir etgan shaxslar jinoyatchi hisoblanadi. Ular jamiyatga hamisha xavf va qo'rquv solib kelgan. Jamiyatda kichkina o'g'rilardan tortib katta zo'ravon jinoyatchilar avval ham bugun va bundan keyin ham doimo mavjud bo'laveradi. Quyida mazkur jinoyat sodir etgan shaxs terminlarining qanday ma'no anglatishini o'zbek tilining izohli lug'atda ko'rib chiqamiz.

Jinoyatchi-[a.-ayb gunoh; jinoiy ish] Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli hatti-harakat. (O'TIL, 2-t., 92-b.). *Og'ir jinoyat. Amaldan foydalanib qilingan jinoyat. Jinoyat ustida ushlamoq. Tergov tugashi uchun esa jinoyatga iqror bo'lish kerak.* H.G'ulom, Mash'al.

Kissavur- [f.-xaltani, kissani kesmoq] Cho'ntak o'g'risi; ko'cha ko'y, bozor va boshqa joylarda kishilarning narsalarini o'g'irlovchi shaxs (O'TIL, 2-t., 376-b.). *Karomat kissavurlarda bo'ladi.. Puling borini bilib orqangdan ilashadi.* T. Obidov,

Yusufjon qiziq. **Kazzob-** [a.-yolg'onchi, soxta, aldoqchi] Yolg'on so'zlar so'zlovchi, yolg'ochi, aldoqchi (O'TIL, 2-t., 293-b.). -*Men uni do'st deb yursam, ilonning yog'ini yalagan kazzob ekan – dedi Ostonaqul*. S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.

Qotil-[a.-o'ldiruvchi, qatl etuvchi, halokatli] Odam o'ldiruvchi yoki o'ldirgan kishi. *Yomon shifokorning qotildan farqi yo'q.* (O'TIL, 2-t., 346-b.). O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor.

Yuridik jarayonda sud hukmi chiqguniga qadar tergovda ishtirok etuvchi shaxslarni ifodalovchi terminlar

Yuqorida qayd etilgan asosiy ishtirokchilardan tashqari, tergov jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydigan boshqa shaxslar ham bor. Bularga guvohlar kiradi, ular sodir bo'lgan voqealar to'g'risida oldindan aytib beradigan va o'z da'volarini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etadilar. Guvohning roli tergov jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki ular hukmga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Quyida so'zlarning o'zbek tilidagi izohini ko'rib chiqamiz.

Guvoh 2. Sud yoki tergov jarayoniga o'z ko'rgan-bilganlarini aytib berish uchun chaqirilgan kishi (O'TIL, 1-t., 514-b.). *Sudga chaqirilgan guvohlarning ko'rsatmalaridan aniqlandiki…(sud bayonnomasidan).*

Gumondor. Biron ishdan gumon qilinuvchi (O'TIL, 2-t., 525-b.). *Sud materiallarida gumondor deb G'ayrat Jiyanov ko'rsatilgan (O'AHN, 35-b.).*

Ayblanuvchi 1. Ayblanuvchi fl. Sfdsh. 2 *huq.* O'zR Jinoiy-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilinishi haqida ayblov qarori chiqarilgan shaxs. (O'TIL, 2-t., 52-b.).

Tarjimon [a. – tarjima qiluvchi] Tarjima qiluvchi shaxs (O'TIL, 2-t., 680-b.). *Mohir tarjimon – Men bilan so'zlashishingiz uchun tarjimon ham kerakdir hali?* P.

Tursun, O’qituvchi.

Ekspert *[lot.* Expertus – tajribali] Sud tergov organlari, tibbiy yoki ilmiy muassasalar tomonidan ekspertiza o’tkazishga chaqirilgan shaxs, muayyan soha mutaxassisi. (O’TIL, 2-t., 27-b.). *Sud ekspertlari, ekspertlar komissiyasi. – Ekspert ishtirokida go’r ochildi. Undan yigirma yoshlar chamasidagi o’rta bo’yli, miqtigina yigitning gavdasichiqdi.* Gazetadan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, huquq tizimida tergov jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir tomon to’plangan dalillarning maqbulligini va ayblanuvchining huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Odil va adolatli hukm chiqarishda bu tomonlar o’rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Huquqiy tizimning yaxlitligi va adolatliligini ta’minlash uchun barcha ishtirokchilar tergov jarayonida o’z rollari va mas’uliyatlarini tushunishlari muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. G’ulomova G. O’zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti. T.: 2005.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli) – Toshkent.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006

3. Mo‘ydinov Q. O‘zbek tili sud nutqi leksikasi. Monografiya.-Chirchiq. 2022

4. Yuridik ensiklopediya. – Toshkent: Sharq, 2001

5. Ko‘chimov Sh.N. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2013. – B. 73.